

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№12

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 312 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulotov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abduliyeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	



IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART- SHAROITLARI VA OMILLARI

Karimova Iroda Abdusattarovna

Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0006-9083-1490

E-mail: iroda1981@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotda samarali raqobat muhitini shakllantirishning asosiy shart-sharoitlari va omillari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Raqobat muhitini takomillashtirish orqali bozor munosabatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslangan. O'zbekistonda zamonaviy bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida raqobat muhitini transformatsiyalashning hozirgi holati baholanib, erishilgan natijalar bilan bir qatorda mavjud muammoli jihatlar aniqlangan. Iqtisodiyotda samarali raqobat muhitini shakllantirish shart-sharoitlari va omillaridan maqsadli foydalanishga doir ilmiy asoslangan takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqobat muhiti, raqobat strategiyasi, tarmoq ichidagi raqobat, raqobatbardoshlik, makroiqtisodiy siyosat, tovar differensiyatsiyasi, iqtisodiy faollik, bozor iqtisodiyoti modeli.

Abstract. The article examines the key conditions and factors for the formation of an effective competitive environment in the economy under modern market relations from a scientific and theoretical perspective. The possibilities for increasing the efficiency of market relations through the improvement of the competitive environment are substantiated. Based on an assessment of the current state of transformation of the competitive environment in the process of developing market relations in Uzbekistan, achieved results along with existing challenges are identified. Scientifically grounded proposals and practical recommendations are developed for the targeted use of conditions and factors contributing to the formation of an effective competitive environment in the economy.

Keywords: competitive environment, competitive strategy, intra-industry competition, competitiveness, macroeconomic policy, product differentiation, economic activity, market economy model.

Аннотация. В статье с научно-теоретических позиций исследуются основные условия и факторы формирования эффективной конкурентной среды в экономике в условиях современных рыночных отношений. Обоснованы возможности повышения эффективности рыночных механизмов за счет совершенствования конкурентной среды. На основе оценки современного состояния трансформации конкурентной среды в процессе развития рыночных отношений в Узбекистане выявлены достигнутые результаты и существующие проблемные аспекты. Разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по целенаправленному использованию условий и факторов формирования эффективной конкурентной среды в экономике.

Ключевые слова: конкурентная среда, конкурентная стратегия, внутриотраслевая конкуренция, конкурентоспособность, макроэкономическая политика, дифференциация товаров, экономическая активность, модель рыночной экономики.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va bozor munosabatlarini samarali tashkil etish tizimi sof raqobat muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Shu bois davlatning iqtisodiyotdagi raqobat muhitini tashkil etish tizimi hamda uni amalga oshirish mexanizmlari uzluksiz ravishda takomillashtirib boriladi. O'z navbatida, raqobat muhitini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish jarayonida ko'p maqsadli iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada bozor subyektlari o'rtasida o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllanib, har bir xo'jalik yurituvchi subyektning bozor faolligini oshirish imkoniyatlari izchil kengayib boradi.

Raqobat shartlarining bozor kuchlari ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turishi sof raqobat muhitini shakllantirishning integral asoslari har doim ham avtomatik tarzda samarali amal qilishini kafolatlamaydi. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy faollikni oshirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosatning izchil amalga oshirilishi raqobat muhitining bozor munosabatlarini rivojlantirishdagi rolini tizimli ravishda tartibga solishni taqozo etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-fevraldagi "Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-35-sonli Farmoniga¹ muvofiq ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan eksklyuziv huquqlar berilishi bo'yicha talablar belgilangan, shuningdek, bunday huquqlar taqdim etilgan subyektlarga qo'yiladigan talablarni tartibga solish va ularni bekor qilish mexanizmlari aniq ko'rsatib berilgan [1]. Mazkur holatlar iqtisodiyotda samarali raqobat muhitini shakllantirish shart-sharoitlarining integral asoslarini muvofiqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda uning tizimli rivojlanish shart-sharoitlarini ta'minlashga yo'naltirilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlarda raqobat muhitini shakllantirish tizimi va uning amal qilish mexanizmlarini tizimli ravishda o'rganish muhim o'rin tutadi. Xususan, xorijiy iqtisodchi olim M. Porterning ilmiy tadqiqotlarida raqobat miqyosiga ko'ra tarmoq ichidagi raqobat shakli asosida sanoat tarmoqlarida potensial raqobatchilar tahdidi, o'rnini bosuvchi mahsulotlarning mavjudligi, shuningdek, yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning savdolashish kuchining raqobat jarayonlariga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat tarmog'idagi barcha raqobatchilarning bozor pozitsiyalarini anglash va raqobatbardoshlik strategiyasini shakllantirishning kompleks usullari taklif etilgan [2].

Yu. V. Taranuxa tadqiqotlarida bozor raqobatining tuzilishi va zamonaviy raqobat shakllarining ko'p qirrali xususiyatlari hamda ularning turli talqinlariga alohida e'tibor qaratilgan [3]. L. S. Arxipova, G. Yu. Gagarina va A. M. Arxipovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda raqobat muhitini takomillashtirish jarayonlari davlat tomonidan ichki bozorlarda raqobatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi bilimlar va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan [4]. A. A. Ryazanovning ilmiy izlanishlarida hozirgi zamon raqobat nazariyasining shakllanishi o'zaro bog'liq, ba'zan qarama-qarshi yondashuvlarga tayangan holda, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos keluvchi raqobat muhitini tashkil etish bozor subyektlari faoliyati samaradorligining muhim omili sifatida baholangan [5]. M. L. Alpidovskaya va N. K. Savelyevaning ilmiy tadqiqotlarida raqobat kategoriyasining nazariy asoslariga tayanib, korxonalar faoliyatida raqobatni boshqarishda marketing faoliyatining ustuvor ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan [6].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Sh. Sh. Shodmonov va U. V. G'afurovlarning ilmiy tadqiqotlari raqobat nazariyasi evolyutsiyasining asosiy bosqichlari doirasida raqobatning turli shakllarini obyektiv baholash imkonini beradi [7]. Sh. R. Qobilovning tadqiqotlarida raqobat muhitining shakllanishida xususiylashtirish jarayonlarining tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilib, yirik korxonalarni raqobatga qodir mustaqil tuzilmalarga ajratish orqali monopoliyadan chiqarish kichik va o'rta biznesda raqobatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishi ta'kidlangan [8]. M. T. Yaxshiyeva ilmiy izlanishlarida raqobat muhitini shakllantirish jarayonida mahalliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan kompleks vazifalarni hal etish zarurligi asoslab berilgan [9]. D. Sh. Bababekovanning ilmiy tadqiqotlarida mamlakatimizda shakllanayotgan bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rta va uzoq muddatli raqobat strategiyalarini ishlab chiqish orqali ishlab chiqaruvchilar bozorida yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarning turli assortimentini kengaytirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan [10].

K. O. Xoliqov va R. H. Do'sanovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda raqobat tushunchasining vujudga kelishi, uning qonunchilik asoslarining shakllanish tizimi tahlil qilinib, O'zbekistonda raqobat muhiti va uni himoya qilish usullari hamda rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [11]. B. O. Tursunovning ilmiy tadqiqotlarida eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning xalqaro bozorlarda raqobat ustunligini ta'minlash va uni amalga oshirish mexanizmlarini muvofiqlashtirishda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2025 yildagi PF-35-son <https://lex.uz/docs/-7410369>

davlatning raqobat siyosatiga alohida e'tibor qaratilgan [12]. M. A. Samiyev tomonidan M. Porterning tadqiqot natijalariga tayangan holda olib borilgan ilmiy izlanishlarda raqobatning besh kuch modeli va uning uslubiy asoslari hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi talablariga muvofiq holda asoslab berilgan [13].

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda raqobat muhitini shakllantirishning makroiqtisodiy asoslari yetarli darajada tahlil qilingan bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlariga mos ravishda samarali raqobat muhitini shakllantirish shart-sharoitlari va omillari o'rtasidagi sinergik bog'liqlikni tashkiliy jihatdan chuqur o'rganish masalalari hali to'liq yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishi doirasida o'rganilgan muammoning ilmiy asoslari va uslubiy jihatlarini tizimlashtirish jarayonida mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash maqsadida rasmiy statistik ma'lumotlarga tayangan holda taqqoslama va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati hamda chakana savdo aylanmasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Shuningdek, raqobat muhiti va uning tarkibiy omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda sabab-oqibatli tahlil hamda iqtisodiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar, iqtisodiy dasturlar va ilmiy manbalarda keltirilgan yondashuvlar o'zaro solishtirilib, ularga asoslangan mualliflik xulosalari shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari hamda omillari iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiluvchi bozor modeli bilan uzviy bog'liq bo'lib, tanlangan model raqobat muhitini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi kombinatsion va integratsion jarayonlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi. Omillar o'rtasidagi kombinatsion munosabat iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida mavjud raqobat muhitining samarali amal qilishini asoslashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda davlatning raqobat muhitini tashkil etish va rivojlantirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosati muhim ahamiyat kasb etib, tanlangan bozor modeliga muvofiq raqobatni qo'llab-quvvatlovchi shart-sharoitlar uzluksiz ravishda shakllantirib boriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida bozor modeliga asoslangan raqobat muhitini shakllantirish jarayoni iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlash, bozor ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratish, bozor ochiqqligini mustahkamlash, raqobatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, axborot almashinuvi erkinligini ta'minlash hamda barqaror va muvozanatli rivojlanishga erishish tamoyillariga tayanadi. Mazkur tamoyillarni muvofiqlashtirish jarayoni davlat makroiqtisodiy tizimi doirasida amalga oshirilgani bois, davlat qonunchilik asoslarini takomillashtirish orqali raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirishga bilvosita, biroq samarali ta'sir ko'rsatadi. Davlatning raqobat muhitini takomillashtirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosati keng qamrovli va kompleks ahamiyatga ega bo'lib, natijada ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Bu holat yalpi ishlab chiqarish hajmining oshishi, korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, byudjet-soliq tizimida barqaror o'sish sur'atlariga erishish hamda ijtimoiy sohani moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayishida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy bozor xo'jaligi modellarining barcha shakllarida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar integratsiyasiga asoslangan samarali tizimni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelida mazkur shart-sharoitlar diversifikatsiyalangan yo'nalishlarga ega bo'lib, aholi qo'lida mavjud moliyaviy va mulkiy resurslarni tadbirkorlik faoliyatiga jadallik bilan yo'naltirish orqali daromadlar darajasini oshirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyotda samarali raqobat muhitini shakllantirish yoki uni takomillashtirish jarayonida raqobatga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar institutsional tuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mintaqaviy bozorlarning hududiy va iqtisodiy chegaralari, tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllari, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, iste'molchilarning to'lov qobiliyati hamda mahsulot uchun mijozlarni yo'qotish xavfi, shuningdek, yangi xo'jalik subyektlari uchun bozorga kirish to'siqlari darajasi bilan tavsiflanadi. Xususan, institutsional tuzilmaning rivojlanganlik darajasi bozorlarning monopollashuv holati, bozorga kirishdagi to'siqlarning mavjudligi, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish darajasi, ishlab chiqarish va mahsulotni taqsimlash xarajatlari, hamda moliyaviy, transport, omborxona, axborot va birja infratuzilmasining rivojlanganlik ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.



Mintaqaviy bozorlarning hududiy va iqtisodiy chegaralari ishlab chiqarish va tovar aylanish jarayonlarining mintaqaviy xususiyatlari, bozorlarning joylashuvi va savdo hajmi bilan belgilanadi. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllari esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkiy tuzilmasi, ishlab chiqarish-iqtisodiy hamda moliyaviy-kredit munosabatlarini tashkil etish tizimi, moliyaviy-sanoat guruhlar va savdo uyushmalari bilan o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida iste'molchilar ta'siri muhim o'rin tutib, ushbu omil hududiy darajada ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va bozor faolligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqobat muhitida muayyan monopol imkoniyatlarning yuzaga kelishi mahsulot uchun mijozlarni yo'qotish xavfi kabi omillar ta'sirida ayrim xo'jalik subyektlarining bozor faolligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Mazkur jarayonning amaliy ifodasi 2020–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

2020-yilda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasining umumiy hajmi 164 106,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur davrda Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasi umumiy hajmining 54,7 foizi jamlangan. Bu holat savdo faoliyatining hududiy jihatdan nisbatan zichlashganligini ko'rsatadi.

2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi 186 759,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 13,8 foizga oshgan. Ushbu yilda ham chakana savdo aylanmasida Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarining ulushi yuqori bo'lib, ular jami savdo hajmining 54,4 foizini egallagan.

2022-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi qiymati 229 166,7 mlrd. so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan 22,7 foizlik qo'shimcha o'sishni namoyon etgan. Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur davrda ham Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarining kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasidagi jami ulushi 54 foizni tashkil etgan.

2023-yilda O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2022-yilga nisbatan 20,2 foizga ortib, umumiy qiymati 275 629,8 mlrd. so'mga yetgan. Shu bilan birga, Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi 148 813,3 mlrd. so'mni tashkil etib, umumiy chakana savdo hajmidagi ulushi 53,9 foiz darajasida shakllangan (1-jadval).

1-jadval. 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi

	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	164106,1	186759,3	229166,7	275629,8	345414,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6205,2	7368,3	9296,4	11075,8	13897,2
Andijon viloyati	13108,2	14301,9	17885,3	21345	26583,3
Buxoro viloyati	10238,8	12125,4	14580,2	16974,4	20463,7
Jizzax viloyati	6305,1	6187,3	7609,5	9066	10848,1
Qashqadaryo viloyati	11943,1	13788,5	17360,8	20780,2	25699,3
Navoiy viloyati	6554,8	7632,7	9496,1	11572,1	14289,2
Namangan viloyati	11031,4	12814,2	16395,4	19495,8	23325,8
Samarqand viloyati	13482,3	16167,9	20451,9	24708,3	32054,4
Surxondaryo viloyati	11500,2	13280,2	16832,6	20231,8	24491,3
Sirdaryo viloyati	3125,4	3462,5	4149,5	4891,4	6060,8
Toshkent viloyati	17389,2	17726,4	21825,7	26569,3	33040,5
Farg'ona viloyati	14675,2	17786,5	20813,8	25657	32280,9
Xorazm viloyati	7248,9	8280,9	10632,8	12729,1	15635,9
Toshkent shahri	31298,4	35836,6	41836,8	50533,7	66744

2024-yilda O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2023-yilga nisbatan 25,3 foizga, 2020-yilga nisbatan esa 2,1 barobarga oshgan. Mazkur davrda Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi jami qiymati 190 703,1 mlrd. so'mni tashkil etib, ushbu hududlarda ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan qo'shimcha 28,1 foizga ortgan.


2020–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil natijalari mazkur hududlarda raqobat muhitini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, Toshkent shahri, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Andijon viloyatlarida raqobat muhitiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar orasida institutsional tuzilmaning rivojlanganlik darajasi mintaqaviy miqyosda bozorlarning monopollashuv darajasini nisbatan past saqlab turishga xizmat qilgan bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonining ko‘pligi bozorga kirish imkoniyatlarining ochiq va erkin xarakterga ega ekanligini ta‘minlagan. Shu bilan birga, mazkur hududlarda mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish darajasi yetarli shakllangan, tovarlarni ishlab chiqarish va tarqatish tizimining optimal tuzilmasi qaror topgan.

Hududiy iqtisodiyotda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladigan moliyaviy, transport, savdo va axborot infratuzilmasi bilan ta‘minlanganlik darajasi yuqori bo‘lib, bu holat tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay sharoit yaratgan. Aholining to‘lov qobiliyati nisbatan yuqori bo‘lganligi sababli, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish hududiy miqyosda keng ko‘lamli xarakter kasb etgan. Natijada ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida narx va sifat omillari orqali shakllangan raqobat muhiti mahsulot komponentlarining ahamiyatini oshirish va mavjud bozor tanqisligini to‘ldirishda yuqori natijadorlikni ta‘minlagan.

Shuningdek, iste‘molchilar o‘rtasida mavjud raqobatchilik muhiti ishlab chiqaruvchilarning xom ashyo, materiallar va boshqa resurslarni yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, bozor tuzilishining samarali modelini shakllantirishga xizmat qilgan. Tahlil xulosalariga ko‘ra, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan davlat mexanizmlari sanoat tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tarkibiy siyosat doirasida korxonalarning ishlab chiqarish va bozor faolligini belgilovchi imtiyozlar tizimini shakllantirish orqali o‘z ifodasini topgan.

Istiqbolda iqtisodiyotda samarali raqobat muhitini shakllantirish shart-sharoitlari va omillarining hududlar darajasida amal qilish tizimini yanada takomillashtirish mahalliy va xalqaro bozorlarda tovar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, muayyan tovar bo‘yicha bozor sig‘imi qanchalik yuqori bo‘lsa, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat muhiti shunchalik rivojlanadi. Bunda iste‘molchilar ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki yuqori daromadlarga ega hududlar raqobatchilar uchun jozibador hisoblanib, ular o‘rtasida erkin va faol raqobat muhitining yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Fikrimizcha, bozor tuzilmasi korxonalarning shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘lib, bozordagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi aloqalarning turli kombinatsiyasini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bozor kontsentratsiyasi darajasining ortishi mahsulotlarning farqlanishi, bozorga kirish va undan chiqishdagi to‘siqlarning balandligi hamda sotuvchilar va xaridorlarning narxga nisbatan turli darajadagi yondashuvlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli iqtisodiyot tarmoqlarida samarali raqobat muhitini shakllantirish omillarining kombinatsion tizimini izchil ravishda joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur tizimni konseptual jihatdan ifodalash 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarida samarali raqobat muhitini shakllantirish omillarining kombinatsion tizimi[16]



Har bir tarmoqda raqobat muhitini shakllantirish va uni rivojlantirish bozor samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon raqobat muhitini tashkil etish va takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiyani ishlab chiqishni hamda ushbu strategiyani doimiy ravishda rivojlantirib borishni taqozo etadi. Tegishli strategiyani shakllantirish va amalga oshirish tizimi tarmoq doirasida resurslarni taqsimlash hamda narxlarni shakllantirishning umumiy iqtisodiy samarasi bilan bevosita bog'liq holda amal qiladi.

Texnologik jarayonlarni tarmoq transformatsiyasi asosida boshqarish tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning maqbul sifat standartlarini joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologik jarayonlarni transformatsiyalashni boshqarish orqali korxonalarning texnologik va ilmiy-texnikaviy sohalaridagi xalqaro hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega [15].

Tarmoqda logistika va ta'minot zanjirini optimallashtirish ishlab chiqarish hamda savdo faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali narxlarni shakllantirish jarayonini optimallashtirish imkonini yaratadi. O'z navbatida, tarmoqda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini bozor talablari asosida muvofiqlashtirish davlatning makroiqtisodiy siyosati doirasida amalga oshirilganligi bois, mazkur jarayonni ta'minlovchi huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarning samarali amal qilishi hamda ularning tashkiliy asoslarini doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Ushbu jihatlar iqtisodiyot tarmoqlarida samarali raqobat muhitini shakllantirish omillarining kombinatsion tizimi raqobat muhitini belgilovchi asosiy shart-sharoitlar va omillar integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy iqtisodiyotda samarali raqobat muhitini shakllantirish shart-sharoitlari va omillarining samarali amal qilish tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tish hamda bozor munosabatlarini takomillashtirish jarayonlarida turlicha xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur farqlanish iqtisodiy rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ushbu jarayonlar monopoliyaga qarshi tartibga solishning muayyan shakl va vositalari orqali ifodalansa, bozor munosabatlarini takomillashtirish bosqichida ishlab chiqarish va taqsimlashning sof bozor modeliga xos mexanizmlarining yanada jadal amal qilishi bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarini izchil rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning tizimlil amalga oshirilishi istiqbolda samarali raqobat muhitini shakllantirish shart-sharoitlari va omillarini muvofiqlashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Mazkur jarayonda iqtisodiyotning tarmoq va sohalar kesimida raqobat muhitini tashkil etish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'rta muddatli yo'l xaritalarini ishlab chiqish, milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini iste'mol talablari bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyati kabi ishlab chiqarish omillarining samarali kombinatsiyasini ta'minlovchi mexanizmlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda iqtisodiyot subyektlarining bozor ulushiga asoslangan ustunlik mavqeini aniqlash jarayonini reyting tizimi mezonlari asosida amalga oshirish, ularning bozor raqobatiga zid bo'lgan xatti-harakatlarini obyektiv baholash imkonini beradi hamda bozorda sog'lom raqobat muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqobat muhitini shakllantirishning hududiy shart-sharoitlariga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda bozor kuchlarining jamlanish darajasining bozor tuzilishiga ta'sirini asoslash, iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini tarkibiy jihatdan tahlil qilish va uning elementlarini tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarning xatti-harakat modellariga moslashtirish algoritmlarini ishlab chiqish muhim metodologik ahamiyatga ega. Raqobatli bozor modelining strukturaviy yondashuviga asoslanib, tarmoqlarda raqobatning obyekti, subyekti va predmeti aniqlanishi orqali bozorning konsentratsiyalashuv darajasini baholash imkoniyatlari kengayadi. Ushbu yondashuvlar majmui iqtisodiyot tarmoqlarida samarali raqobat muhitini shakllantirishning kompleks va izchil mexanizmini joriy etishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-fevraldagi "Iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish va xususiy sektorning rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-35-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7410369>
2. Портер, М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов: перевод с английского//Майкл Портер; переводчик И. Минервин; научный редактор О.Нижельская.– Москва: Альпина Паблицер, 2020.– 606 с.
3. Тарануха Ю.В. Конкуренция и конкурентоспособность [Текст] монография. – Москва: Русайнс, 2017. – 334 с.
4. Архипова Л.С., Гагарина Г.Ю., А.М.Архипов. Конкуренция как основа экономики: концептуальные подходы к исследованию роли конкуренции: монография.– Москва: ИНФРА-М, 2021. – 104 с.
5. Рязанов А.А. Эволюция теории конкуренции // Вестник Московского университета им. С.Ю.Витте. Сер.1: Экономика и управление. – 2017.– № 2.– С.21-30.
6. Альпидовская М.Л., Савельева Н.К. Управление конкуренцией: маркетинговый аспект: [монография]/ Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации (Финансовый университет). – Москва: Перо, 2020. – 162 с.



7. Shodmonov, Sh. Sh., G'afurov, U. V. Iqtisodiyot nazariyasi : darslik. – Toshkent, 2009. – 585 b.
8. Qobilov, Sh. R. Iqtisodiyot nazariyasi : darslik. – Toshkent : O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 775 b.
9. Yaxshiyeva, M. T. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi : o'quv qo'llanma. – Toshkent : TDIU, 2019. – 280 b.
10. Bababekova, D. Sh. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida raqobat va uning amal qilish xususiyatlari : i.f.n. dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 26 b.
11. Xoliqov, K. O., Do'sanov, R. H. Raqobat: nazariyasi, shakllanishi va usullari. – Termiz : TermDU, 2009. – 59 b.
12. Tursunov, B. Export competitiveness: theory and practice // International Finance and Accounting. – 2020. – Vol. 2020. – No. 3. – P. 27.
13. Samiyev, M. A. Raqobatning besh kuchi va uning uslubiy asoslari // JMBM. – 2025. – № 12. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqobatning-besh-kuchi-va-uning-uslubiy-asoslari>
14. Axmedov, F. 2023. Mamlakatimizda teng raqobat sharoitini yaratish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish masalalari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – DOI: <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp107-113>
15. Tursunov, B. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish // ScienceProblems.uz. – 2024. – Jild 4. – № 11.
16. www.stat.uz — O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy axborot sayti ma'lumotlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100